



CAUSES AND CONSEQUENCES OF TRANSNATIONAL CRIME

Nurbek Abdivaliyevich Safarov

*Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor
Independent Researcher, Karshi State University*

E-mail: safarovnurbek78@gmail.com

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: transnational crime, globalization, international terrorism, illegal migration, human trafficking, drug smuggling, cybercrime, corruption, international security, legal mechanisms, international cooperation, global threats.

Received: 13.06.26

Accepted: 14.06.26

Published: 15.06.26

Abstract: This article scientifically analyzes the causes of the emergence of transnational crime, its modern manifestations, and its negative consequences for society and state security. The role of transnational threats such as international terrorism, illegal migration, human trafficking, drug smuggling, cybercrime, and financial crimes in the process of globalization is highlighted. In addition, economic inequality, political instability, corruption, and the development of information technologies are assessed as the main factors contributing to the growth of transnational crime. The study substantiates the importance of international cooperation, legal mechanisms, and security policy in preventing such crimes.

TRANSMILLIY JINOYATCHILIKNING VUJUDGA KELISHI SABABLARI VA OQIBATLARI

Nurbek Abdivaliyevich Safarov

Falsafa doktori (PhD), dotsent

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqoqchisi

safarovnurbek78@gmail.com

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: transmilliy jinoyatchilik, globallashuv, xalqaro terrorizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, giyohvand

Annotatsiya: Mazkur maqolada transmilliy jinoyatchilikning vujudga kelish sabablari, uning zamonaviy koʻrinishlari

moddalar kontrabandasi, kiberjinoyat, korrupsiya, xalqaro xavfsizlik, huquqiy mexanizmlar, xalqaro hamkorlik, global tahdidlar.

hamda jamiyat va davlat xavfsizligiga ko'rsatadigan salbiy oqibatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xalqaro terrorizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, giyohvand moddalar kontrabandasi, kiberjinoyatlar va moliyaviy jinoyatlar kabi transmilliy tahdidlarning globallashuv jarayonidagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, iqtisodiy tengsizlik, siyosiy beqarorlik, korrupsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi transmilliy jinoyatchilikning kuchayishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida baholanadi. Tadqiqotda mazkur jinoyatlarning oldini olishda xalqaro hamkorlik, huquqiy mexanizmlar va xavfsizlik siyosatining ahamiyati asoslab berilgan.

ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ПОСЛЕДСТВИЯ ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ

Нурбек Абдивалиевич Сафаров

Доктор философии (PhD), доцент

Независимый исследователь Karshi State University

E-mail: safarovnur bek78@gmail.com

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: транснациональная преступность, глобализация, международный терроризм, незаконная миграция, торговля людьми, контрабанда наркотиков, киберпреступность, коррупция, международная безопасность, правовые механизмы, международное сотрудничество, глобальные угрозы.

Аннотация: В данной статье научно анализируются причины возникновения транснациональной преступности, её современные проявления, а также негативные последствия для общества и государственной безопасности. Освещается роль таких транснациональных угроз, как международный терроризм, незаконная миграция, торговля людьми, контрабанда наркотических веществ, киберпреступность и финансовые преступления в условиях глобализации. Кроме того, экономическое неравенство, политическая нестабильность, коррупция и развитие информационных технологий рассматриваются как основные факторы, способствующие усилению транснациональной преступности. В исследовании обосновывается значение международного сотрудничества, правовых механизмов и политики

Kirish. O'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab, jinoyatchilikning mohiyatan va xarakteriga ko'ra mutlaqo yangi ko'rinishi vujudga kela boshladiki, mazkur jinoyatlar bir vaqtning o'zida bir emas, bir necha mamlakatlarning ijtimoiy voqeligiga, barqarorligi va xavsizligiga ta'sir ko'rsatishi bilan tashvil tug'dirdi. Ilmiy manbalarda jinoyatchilikning bu ko'rinishi transmilliy jinoyatchilik nomini oldi. Transmilliy jinoyatchilik - bir davlat hududida boshlanib, boshqa davlat hududida davom etadigan, bir necha mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy va madaniy manfaatlariga, barqarorligi va xavfsizligiga tahdid soladigan jinoyatchilik turidir[1;138]. Jinoyatchilikning mohiyatan o'ta xavfli bo'lgan ushbu turi qator belgilari bilan ajralib turadi. Ilmiy manbalarda bu belgilar turlicha tavsiflanadi. Biz dotsent A.YE. Shalagin maqolasida keltirilgan tavsifni ma'qul deb topdik. Unga ko'ra, bu belgilar quyidagilardan iborat:

- bunday jinoyatlar ikki yoki undan ortiq mamlakatlar hududida sodir etiladi;
- bunday jinoyatlar bir mamlakat hududida sodir bo'ladi, biroq boshqa mamlakatda rejalashtiriladi va tashkil qilinadi;
- bunday jinoyatlar bir mamlakat hududida bir necha mamlakatda faoliyat olib borayotgan jinoiy guruh tomonidan sodir etiladi;
- bunday jinoyatlar bir mamlakatda sodir etilsada, uning oqibatlari bir necha mamlakatlarda namoyon bo'ladi[1;138].

Asosiy qism. Transmilliy jinoyatlar faqat bugungi ijtimoiy voqelikning salbiy oqibati emas. Uning tarixiy ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sivilizatsiyalaridayoq transchegaraviy jinoyatchilikning dastlabki ko'rinishlari kuzatiladi. Masalan, qadimgi davrda Buyuk ipak yo'lidan harakatlangan karvonlarga hujumlar sodir bo'lib turardi. Yo'l bo'ylab joylashgan ko'pgina shaharlarda qullar savdosi amalga oshirilardi[3]. Eramizdan avvalgi II asrdan boshlab Yevropaning janubida joylashgan dengizlarda qaroqchilik avj oldi[4;258]. Sirasini aytganda, bu holatlar transmilliy jinoyatlarning ilk shakllari edi.

O'rta asrlar davomida xalqaro savdo yo'llari kengaya borar, dengiz transport kommunikatsiyalari rivojlanar ekan, transmilliy xarakterga ega qaroqchilik ham mazmunan va shaklan takomil topib boraverdi. Bu davrga kelib, Ispaniya, Italiya va Shimoliy Afrika portlari yaqinidagi qaroqchilik tom ma'noda iqtisodiy ofatga aylandi[4;259-260]. Bu jinoyatlar xarakteri nafaqat ilmiy manbalar, balki turfa badiiy asar va filmlarda ham atroflicha ochib berilgan. Yangi zamon - XVI–XIX asrlar mobaynida kapitalistik munosabatlarning chuqur ildiz otishi, industrial

taraqqiyot tendensiyalarining paydo bo'lishi transmilliy jinoyatlar tegirmoniga ham suv quydi. Yangi geografik kashfiyotlar sharofati o'laroq mamlakatlararo ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarning intensiv tus olishi turli o'lkalarda kontrabanda mahsulotlar savdosiga asoslangan qora bozorlarni vujudga keltirdi. Shu davrda millionlab afrikaliklarning noqonuniy tarzda Amerika qit'asiga olib ketilishi ham transmilliy jinoyatchilikning tarixiy namunalaridan biridir.

Biroq XX asrga kelibgina transmilliy jinoyatchilik murakkab tarkib va ko'lamga ega bo'lgan umuminsoniy tahdidga aylandi. Transport, aloqa va moliya tizimlari ravnaqi, uning oqibati o'laroq xalqaro iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi jinoyatchilikning mazkur turini yangi bosqichga olib chiqdi. Aynan shu davrda, aytaylik, Sitsiliya mafiyasi va AQSH gangsterlari faoliyati xalqaro tus ola boshladi. Aynan shu davrda Lotin Amerikasi kartellari, Janubi-Sharqiy Osiyo triadalarini, Sharqiy Yevropadagi uyushgan jinoyatchilik guruhlarini narkotrafik, qurol savdosi va odam savdosi kabi jinoyatlarni mufassal tashkil qilindigan ijtimoiy qilmishlarga aylantirdi[5:45].

Xo'sh, XX asrning o'rtalariga kelib, transmilliy jinoyatchilikning umuminsoniy barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soladigan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisaga aylanishi sababi nimada? Fikrimizcha, buning to'rt asosiy sababi mavjud. Birinchidan, o'tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib, dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va taraqqiyoti sur'atlari o'rtasidagi tafovut misli ko'rilmagan darajaga yetdi. Buning oqibatida rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarning turli mahsulot va xizmatlarga ehtiyoji jadal osha boshladi. Shu munosabat bilan ushbu ehtiyojlarni noqonuniy yo'llar bilan bo'lsada qondirishni kasb qilgan guruhlar paydo bo'ldi. Ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlardagi resurslar taqchilligi, kambag'allik darajasining yuqoriligi jinoiy tarmoqlarga oson jalb qilindigan kishilar toifasini yuzaga keltirdi. Shu tariqa iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan yurtlar narkotrafik, kontrabanda va odam savdosi kabi transmilliy jinoyatlar uchun asosiy manbaga aylandi. Ikkinchidan, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli o'rtasidagi tafovut, rivojlangan yurtlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortishi, rivojlanayotgan o'lkalarda esa shiddatli demografik o'sishning sodir bo'lishi migratsiya jarayonlarini intensivlashtirdi. Ushbu jarayonlar nazoratsiz kechgan hududlarda kishilarni ekspluatatsiya qilish, odam savdosi bilan bog'liq transmilliy jinoyatlar tizimli tus ola boshladi.

Uchinchidan, o'tgan asrning ikkinchi yarmida turli mamlakatlar hududida sodir bo'lgan ichki nizolar va qurolli to'qnashuvlar davlat nazorati sust bo'lgan yurtlarni vujudga keltirdi. Keyinchalik aynan ana shu hududlar giyohvandlik moddalarini noqonuniy ishlab chiqarish, noqonuniy qurol savdosini amalga oshirish, odam savdosini yo'lga qo'yish, kontrabanda mahsulotlari oqimini muvofiqlashtirish markazga aylandi. To'rtinchidan, o'tgan asrning ikkinchi

yarmidan boshlab rivojlangan mamlakatlarda individualistik turmush tarzi keskin kuchaydi, iste'molchilik kayfiyati chuqur ildiz otdi, an'anaviy qadriyatlarga darz ketdi. Bularning barchasi shu mamlakatlarning ko'plab fuqarolarida ijtimoiy mas'uliyatning kamayishiga, boylik orttirish niyatining shakllanishiga olib keldi. Ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlarda o'rta asrlarga xos bo'lgan qavm-qarindoshchilik, mahalliychilik illatlari saqlanib qoldi. Har ikkala holat transmilliy jinoyatlarning takomillashishiga zamin yaratdi.

Transmilliy jinoyatchilikning umuminsoniy barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soladigan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisaga aylanishi turli mamlakatlar hukumatlarini, xalqaro jamoatchilikni unga qarshi kurash choralarini kuchaytirishga undadi. O'tgan yarim asr davomida jahonda transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni besh yo'nalishga tasniflash mumkin:

- transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashga tizimli tus beradigan xalqaro huquqiy nizomlar va konvensiyalar qabul qilindi. Jumladan, 2000 yilda BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi[6], Budapesht Konsensiyasi[7] qabul qilindi. Ushbu xalqaro huquqiy hujjatlar davlatlarning transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashga doir ichki qonunlarini muvofiqlashtirdi;

- mamlakatlar huquq-tartibot organlarining transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi hamkorligi takomillashtirildi. Jumladan, transmilliy jinoyatchilikka doir axborotlar almashinuvi, xalqaro izlov va operativ hamkorlikning zamonaviy mexanizmlari shakllantirildi. Ushbu choralar transmilliy xarakterdagi jinoyatlarni sodir etgan guruhlarining jazodan qutulib qolish imkoniyatlarini kamaytirdi;

- transmilliy jinoyatchilik bilan bog'liq moliyaviy tizimlarga barham berish choralari ko'rildi. Jumladan, moliyaviy jinoyatchilikka qarshi kurashning xalqaro standartlari (FATF) ishlab chiqildi[8]. Mazkur standartlar xalqaro jinoyatchilarning jinoiy pullarni yuvish, korrupsiya va terrorizmni moliyalashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini chekladi;

- xalqaro kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish imkonini beradigan texnik platforma yaratildi. Jumladan, ko'plab mamlakatlarning raqamli xavfsizlik strategiyalari ishlab chiqildi, CERT/CSIRT tarmoqlari kengaytirildi[9;], kiberjinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashgan markazlar tashkil etildi. Bu choralar kiberxatarlarni cheklashda muhim o'rin tuta boshladi;

- transmilliy korrupsiya, mulkni o'g'irlash va aktivlarni yashirishga qarshi kurash global darajaga olib chiqildi. Jumladan, 2007 yilda Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi o'rtasida hamkorlik dasturi (StAR -

Stolen Asset Recovery Initiative) qabul qilindi[10]. Ushbu tashabbus korrupsiya yo‘li bilan o‘zlashtirilgan davlat mablag‘lari va aktivlarini qaytarish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Biroq ko‘rilgan choralar va jamlangan tajribalardan qat’i nazar transmilliy jinoyatchilikning umuminsoniy barqarorlik va xavfsizlikka tahdidi barham topganicha yo‘q. Bugun ham uning turli ko‘rinishlari mintaqalar va mamlakatlar xavfsizligiga tahdid solayotir, ularning taraqqiyoti sur‘atlarini sezilarli darajada sekinlashtirayotir. Ayni paytda transmilliy jinoyatchilik ko‘rinishlari xarakterida ham tub o‘zlarishlar sodir bo‘lmoqda. Xususan, yangi asrda jahonda qurol-yaroqlarning noqonuniy savdosi raqamlasha boshladi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, XXI asrda qurol-yaroqlarning noqonuniy aylanmasi nafaqat an’anaviy kontrabanda usullari, balki raqamli texnologiyalar yordamida ham amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bunday evrilish noqonuniy qurol savdosini zamonaviy transmilliy jinoyatchilikning eng xavfli va dinamik yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi.

XXI asrda Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika va Lotin Amerikasida o‘zaro urushlar va ichki nizolar ko‘paydi, ko‘plab mamlakatlarda qurollangan guruhlar faoliyati intensivlashdi. Bularning barchasi qurol-yaroq bozorida talabning beqiyos oshishiga olib keldi. Bugungi kunda mavjud talablardan nafaqat turli davlatlar, balki qator diniy-siyosiy guruhlar, kriminal sindikatlar, terroristik tashkilotlar va mafiya tarmoqlari ham ustakorona foydalanmoqdalar. Mutaxassislar mazkur mintaqalardagi jangarilarning qo‘llaridagi qurol-yaroqning mutlaq katta qismi noqonuniy tarzda yetkazilib berilganini ta’kidlaydilar[11;104].

E’tiborli jihati shundaki, yangi asrda qurol-yaroqlarni noqonuniy tarzda sotishning yangi, raqamli texnologiyalarga asoslangan, shu sababdan ham nazorat qilish qiyin bo‘lgan mexanizmi vujudga keldi. Yangi yuzyillikda qurol-yaroq sotuvchisi va xaridori bevosita emas, shifrlangan kommunikatsiya kanallari orqali bog‘lanmoqdalar. Bunday mexanizm nafaqat jinoyatchilarga anonim qolish imkonini bermoqda, balki qurolyaroq bozorida ham tezkor tranzaksiya imkoniyatlarini hosil qilmoqda.

Qurol-yaroq bozoriga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi oqibatlari buning bilan intiho topmaydi. Yangi asrda bu bozorda 3D-printerda yaratilgan qurollar ham paydo bo‘ldi. Tahdidli jihati shundaki, mazkur qurollarning tarkibiy qismlari oddiy materiallardan tayyorlanmoqda. Buning ustiga, bunday qurollarning seriya raqamlari ham mavjud emas[12;10]. Ushbu ikki xususiyatning biri xalqaro jinoyatchilarga qurollarni arzon tannaxrlarda va istalgan miqdorda ishlab chiqish imkonini berayotgan bo‘lsa, ikkinchisi-davlat chegaralarini kesib o‘tishni osonlashtirmoqda.

XXI asrda narkobozorning global integratsiyasi benihoya kuchaydi. Avvalgi paragrafda joriy yuzyillikda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarda yangi model yuz ko‘rsata boshlaganini, ushbu model giyohvandlik vositalarini yetishtirish, tayyorlash, saqlash, realizatsiya qilish tizimlarini o‘z ichiga olayotganini ta’kidlab o‘tdik. Yangi asrda mazkur modelning giyohvandlik vositalari savdosi bilan bog‘liq tarkibiy qismi ayniqsa takomil topdi. Xususan, giyohvandlik vositalari savdosi bilan shug‘ullanayotgan jinoiy guruhlar tarkibi o‘zgardi. Avvallari bu tarkib yirik jinoiy kartellarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, endilikda narkobozorda kichik va tez o‘zgaruvchan, ayni paytda o‘zaro aloqada bo‘lgan hamda o‘z faoliyati bilan juda katta hududlarni qamrab olayotgan mikroguruhlar paydo bo‘la boshladi. Bunday turli-tumanlik narkosavdoga qarshi kurashni bag‘oyat qiyinlashtirayapti, chunki mazkur mikroguruhlarning bittasi yo‘q qilingani zahoti, ularning o‘rniga boshqasi vujudga kelmoqda. Narkobozorni giyohvandlik vositalari bilan ta‘minlashga xizmat qilayotgan logistika tizimi ham takomil topdi. Pochta orqali yubormalar, kuryerlik xizmati, yashirin “kesh-poynt”lar va QR-kodli sxemalar jinoyatchilar uchun xavfsiz kanal vazifasini bajarmoqda. Ushbu faktlar ko‘rsatadiki, XXI asrda narkosavdo yashirin iqtisodiyotning murakkab tarkibga, umumsayyoraviy ko‘lamga, yuksak dinamikaga, yuqori darajadagi konspirativ xususiyatga ega bo‘lgan tarmog‘iga aylandi[13;228].

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro migratsiyaning kuchayishi odam savdosi bilan bog‘liq transmilliy jinoyatlarning diversifikatsiyalashuviga va gibridlashuviga olib keldi. Jumladan, jahonda sodir etilgan umumiy jinoyatlar tarkibida mehnat ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq jinoyatlar ulushi ortdi. Butun jahon bo‘ylab migrantlarni qishloq xo‘jaligi, qurilish, maishiy xizmat va servis sohalariga ishga jalb qilish, so‘ngra esa ularni ayovsiz ekspluatatsiya qilish holatlari ko‘paymoqda. “Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, 20-40 million kishi quldorlikning zamonaviy shakli qurboniga aylanmoqda. Mazkur muammoning anq ko‘lamini bilish juda mushkul, chunki jinoiy faoliyat yashirin olib boriladi. Xalqaro darajada odam savdosi qurbonlarining 0,04 foizigina aniqlangan”[14;811].

Xulosa. Odam savdosining yuqori daromad keltirayotgan tarmoqlaridan yana biri jinsiy ekspluatatsiya bo‘lib qolmoqda. E’tiborli tomoni shundaki, yangi asrda uning mutlaqo yangi shakllari paydo bo‘ldi. Endilikda jinoyatchilar turli mamlakatlarda istiqomat qilayotgan ming-minglab ayollar va bolalarni tanishuv platformalari va messengerlardan foydalanib og‘dirishga urinmoqdalar, keyinchalik esa ularni jinsiy xizmatlar ko‘rsatishga, striming kameralari orqali majburiy faoliyat olib borishga, pornografik filmlarda suratga tushishga majburlamoqdalar.

Bugungi kunga kelib, bolalar mehnatidan noqonuniy foydalanish, ularni tilanchilik qilishga majburlash, bolalar kontenti orqali daromad olish bilan bog‘liq tijoriy usullar ham chuqur ildiz

otmoqda. Turli ekstremistik guruhlar faollashib borayotgan mintaqalarda esa bolalarni harbiy guruhlariga jalb qilish hollari ko‘zga tashlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шалагин А.Е. Транснациональная преступность: понятие, признаки, меры противодействия.// Вестник экономики, права и социологии, 2016, №3.- 138-с.
2. Шалагин А.Е. Транснациональная преступность: понятие, признаки, меры противодействия.// Вестник экономики, права и социологии, 2016, №3.- 138-с.
3. Фукалов И. Работоторговля на Великом шелковом пути.// kghistory.akipress.org, 2023, 19 августа.
4. Мазуренко М.Н. Историко-правовой анализ возникновения морского пиратства.// Приоритетные научные направления: от теории к практике, 2016, №23.- 258-с.
5. Новикова С.Н. Транснациональность - основная черта современной преступности.// Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Юридические науки, 2002, №1.- 45-с.
6. Конвенция Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности.// www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orgcrime.shtml?ysclid=mivcct7cip40462360.
7. Будапештская Конвенция.// www.coe.int/ru/web/impact-convention-human-rights.
8. Группа разработки финансовых мер борьбы с отмыванием денег.// bigenc.ru.
9. Computer Emergency Response Team (CERT): What is it?// datascientest.com/en/all-about-cert.
10. StAR supports international efforts to end safe havens for corrupt funds.// [/star.worldbank.org](https://star.worldbank.org).
11. Мулюкова М.,В. Транснациональный нелегальный оборот оружия: анализ проблемы и пути её решения.// Скиф. Вопросы студенческой науки, 2018, №10.- 104-с.
12. Афонин Д.Н. Контрабанда оружия: современное состояние проблемы.// Бюллетень инновационных технологий, 2023, №2.- 10-с.
13. Табаков А.В. Международная криминальная наркоторговля: экономико-криминологический аспект.// Ученые записки Санкт-Петербургского имени В. Б. Бобкова филиала Российской таможенной академии, 2012, №3.- 228-с.

14. Дадабоева Ж.А., Мамадаалиева М. Одам савдоси ёхуд “замонавий қулликка” қарши курашиш муаммолари.// Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023, №2.- 811-б.